

UZLUKSIZ TA'LIMDA MUAMMOLAR VA ULARNING YECHISH YO'LLARI

Mirzayeva Irodaxon Xamdamovna*Turon universiteti Andijon filiali**irodaxonmirzayeva89@gmail.com*<https://orcid.org/0009-0005-7435-8026>**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:09.10.2025**Revised: 10.10.2025**Accepted:11.10.2025***KALIT SO'ZLAR:**

*uzluksiz ta'lim,
raqamli
kompetensiyalar,
infratuzilma, pedagogik
innovatsiyalar, ta'lim
tendensiyalari..*

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimining rivojlanish holati, dolzarb muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Muallif uzluksiz ta'limga zamonaviy yondashuvlar, raqamli kompetensiyalar, motivatsion omillar va infratuzilma imkoniyatlari orqali yondashishni taklif qiladi.

Zamonaviy jamiyatda bilimga bo'lgan ehtiyoj inson hayotining barcha bosqichlarida dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois, ta'limning uzluksizligi zamon talabi bo'lib, har bir fuqaroga o'z kasbiy salohiyatini doimiy rivojlantirish imkonini yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori uzluksiz ta'limga alohida e'tibor qaratilishini belgilab berdi. Shunga qaramay, bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida qator muammolar saqlanib qolmoqda. Uzluksiz ta'lim bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida har bir fuqaroning bilim va ko'nikmalarini butun hayoti davomida rivojlantirishga xizmat qiluvchi

tizim sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu tizim orqali insonlar mehnat bozorining o'zgaruvchan talablari asosida o'z kasbiy salohiyatini doimiy oshirib borishi mumkin.

Ammo hozirgi davrda O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining samaradorligini cheklab turgan qator muammolar mavjud. Ular orasida quyidagilar eng dolzarb hisoblanadi:

Uzluksiz ta'limdagi muammolar

1.1. Malaka oshirish tizimining eskirganligi

Ko'plab pedagoglar o'z mutaxassisliklari bo'yicha zamonaviy metodikalardan foydalanmayapti. Malaka oshirish kurslari esa nazariyaga asoslangan bo'lib, amaliyotdan yiroq bo'lib qolmoqda (Tadjibaeva, 2021).

1.2. Dasturlar va kontentning mos emasligi

Uzluksiz ta'lim kurslari ko'pincha kasbiy ehtiyojlar va mehnat bozoridagi talablar bilan mos kelmaydi. O'quv dasturlari statik, o'zgarishga qodir emas.

1.3. Moliyaviy va texnik infratuzilma yetishmovchiligi

Ko'plab ta'lim muassasalari, ayniqsa qishloq joylaridagi tashkilotlar, zamonaviy texnika va internet tarmog'i bilan to'liq ta'minlanmagan.

1.4. O'qituvchilarning malaka darajasi pastligi

Uzluksiz ta'limni sifatli tashkil etish uchun yuqori malakali pedagoglar zarur. Afsuski, ayrim holatlarda o'qituvchilar zamonaviy yondashuv va texnologiyalarni yetarlicha bilishmaydi.

1.5. Ta'lim dasturlarining zamon talablariga mos emasligi

Amaldagi uzluksiz ta'lim dasturlari ba'zida real hayotda qo'llaniladigan amaliy bilimlardan yiroq bo'ladi.

1.6. Motivatsiya va rag'batlantirish tizimining zaifligi

O'quvchilar va pedagoglar uchun uzluksiz ta'limga jalb qiluvchi rag'batlantirish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Uzluksiz ta'limda qatnashuvchilar uchun maxsus imtiyozlar, lavozim o'sishiga oid kafolatlar yetarli emas. Bu holat esa faollikni pasaytiradi.

1.7. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdagi cheklovlar

Raqamli platformalar, onlayn kurslar va masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti.

2. Muammolarni yechish yo'llari

2.1. Infratuzilmani modernizatsiya qilish

Ta'lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy kompyuterlar va raqamli ta'lim platformalari bilan ta'minlash uzluksiz ta'limda sifat kafolati hisoblanadi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi bu borada muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda (EUA, 2021).

2.2. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish

UNESCO tomonidan amalga oshirilayotgan DELTA dasturi orqali pedagoglar uchun zamonaviy raqamli kurslar tashkil etilmoqda. Bu holat ularning didaktik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi (UNESCO, 2022).

2.3. Dastur va metodikalarni takomillashtirish

Uzluksiz ta'lim uchun kompetensiyaga asoslangan, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish zarur. Masalan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "modulli dasturlar" bu borada muvaffaqiyatli tajriba hisoblanadi (OTFIV, 2023).

2.4. Rag'batlantirish tizimini joriy etish

Uzluksiz ta'limda faol ishtirok etgan o'qituvchi yoki mutaxassislarni mukofotlash, lavozim ko'tarilishi yoki ish haqi ustamalarini berish orqali motivatsiyani oshirish mumkin. Uzluksiz ta'limda qatnashganlar uchun imtiyozlar, grantlar, sertifikatlash va lavozim o'sishi kabi rag'batlantirish choralari joriy etish.

2.5. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish

Ta'lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy kompyuterlar va raqamli ta'lim platformalari bilan ta'minlash.

2.6. O'qituvchilarning doimiy malaka oshirishi

Pedagoglar uchun zamonaviy metodikalar, AKT vositalari va pedagogik innovatsiyalarni o'rgatadigan maxsus trening va kurslar tashkil etish.

2.7. Ta'lim dasturlarini qayta ko'rib chiqish

Bozor iqtisodiyoti va zamonaviy kasblar talabiga mos, kompetensiyaga asoslangan, modulli o'quv dasturlarini ishlab chiqish.

2.8. Motivatsiya tizimini kuchaytirish

Uzluksiz ta'limda qatnashganlar uchun imtiyozlar, grantlar, sertifikatlash va lavozim o'sishi kabi rag'batlantirish choralari joriy etish.

2.9. Hamkorlik va xalqaro tajriba almashinuvi

Chet eldagi ilg'or uzluksiz ta'lim tajribalarini o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish orqali sifatni oshirish.

Xulosa

Uzluksiz ta'lim tizimi rivojlangan jamiyat uchun asosiy omillardan biridir. Yuqorida keltirilgan muammolar tizimli yondashuv orqali yechilishi mumkin. Raqamli ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish, o'qituvchilar salohiyatini oshirish va motivatsion tizimni yo'lga qo'yish orqali uzluksiz ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Uzluksiz ta'lim – bu zamonaviy jamiyatda hayotiy zarurat bo'lib, uning rivojlanishi mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Yuqorida ko'rib chiqilgan muammolarni bartaraf etish va taklif etilgan yechimlarni amaliyotga joriy etish orqali uzluksiz ta'limning sifatini oshirish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishni ta'minlash mumkin. Davlat va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali ushbu sohada yangi bosqichga chiqish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO (2022). *Strengthening digital competencies of TVET educators in Uzbekistan*. <https://www.unesco.org>
2. Tadjibaeva, S. (2021). *O'zbekistonda o'qituvchilar malakasini oshirishda muammolar va takliflar*. Toshkent: Ilm ziyo nashriyoti.
3. Mahmudov, R. (2023). *Pedagogik faoliyatda uzluksiz ta'lim motivatsiyasini oshirish masalalari*. Ta'lim innovatsiyalari jurnali, №2.
4. EUA (2021). *Digital Learning in Uzbekistan: Challenges and Lessons Learnt*. <https://eua.eu>
5. Mamatqulov A.L. "Таълим тизимида масофавий таълим технологияларидан фойдаланишнинг аҳамияти" Журнал Икро, Impact Factor (Research BIB) 2024 Volume:11
6. Mirzayeva I.X "Education system nowadays" www.pedagoglar.uz ,2022-on.p 120-124